

1-AMALIY MASHG'ULOT

Mavzu: Uzluksiz ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axborot kompetentligi kasbiy tayyorgarligi

Zamonaviy pedagogik ta'limda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni shartli ravishda ikkita tashkil etuvchiga ajratish mumkin:

- bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash tizimida kompetentli yondoshuvning joriy qilinishi munosabati bilan sodir bo'layotgan o'zgarishlar;

- maktab ta'limi tizimida axborotlashgan jamiyatning talablari bilan yuzaga kelayotgan va pedagogik ta'lim tizimiga nisbatan ilgari boruvchi xarakterga ega bo'lgan o'zgarishlar.

Boshlang'ich maktab ta'lim jarayonida yangi axborot va telekommunikatsion texnologiyalarning qo'llanilishi o'quv jarayonini faqat axborot-texnologik va Kompyuterli-metodik qo'llash vositalarining mavjudligini ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan samarali foydalanuvchi ma'muriy va muxandis-texnik kadrlarni tayyorlashnigina emas, balki boshlang'ich sinflar o'qituvchilarining ham maxsus tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini ham talab etadi.

Boshlang'ich sinflar o'qituvchilarining AT-tayyorgarligining zamonaviy holatini tahlil qilish quyidagi yondoshuvlarni aniqlash imkonini berdi:

- biror yondashuv, u kasbiy tayyorlash jarayoniga informatikani va uni o'qitish metodikasini o'rganish uchun qo'shimcha o'quv soatlarini kiritish;

- modulli-komponentli yondoshuv, u ta'lim kursini o'qituvchining konkret pedagogik faoliyat vaziyatlarida yuzaga keladigan kasbiy masalalarni axborot va kommunikatsiya texnologiyalarida foydalanish bilan hal etish qobiliyatini aniqlovchi integral xarakteristika sifatida tushuniladigan o'qituvchining kasbiy axborot-texnologik komponentligi tushunchasiga tayanib modulli qurish bilan tavsiflanadi;

- integrativ yondoshuv – u informatikani va axborot texnologiyalari turli o'quv fanlari bilan integratsiyalanishini nazarda tutadi.

- majmuaviy yondoshuv – u ta'lim jarayonini majmuaviy (kompleks) tushunish kontseptsiyasiga asoslanadi va uning xususiyati ta'lim jarayoni hamma sikllarini ta'limning axborotlashuvi bilan bog'langan falsafiy, umumta'limiy, psixologo-pedagogik va metodik masalalarni jalb qilishdan iboratdir.

Shunday qilib, hozirgi vaqtda boshlang'ich sinflar o'qituvchisining AT-tayyorgarligi ikki komponentli tayyorlash tizimidan (informatika va uni o'qitish metodikasidan) ko'p komponentli tizimga o'tish bilan tavsiflanadi.

Davlat ta'lim standartlari tahlilining ko'rsatishicha, boshlang'ich sinflar o'qituvchilarini AT-tayyorlash kichik maktab yoshidagi o'quvchini Kompyuter savodxonligini rivojlantirishga tayyorgarligini shakllantirishga yo'naltirilgan. Shu bilan bir vaqtda boshlang'ich maktabni axborotlantirish bosqichi o'quvchilarning axborotli savodxonligini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, bunda u axborotli faoliyat uquvlari va malakalarini, atrof-olam to'g'risida axborot fazasi to'g'risidagi tasavvurni, asosiy kommunikativ malakalarni axborotga qadriyatli yondoshuv bilan biriktirilishini o'z ichiga oladigan integratsiyalashgan shaxsiyatli sifat deb qaraladi. Yuqorida aytilganlarga asosan, biz axborotli kompetentlikni boshlang'ich sinflar o'qituvchisining kasbiy ta'limi natijalaridan biri deb hisoblaymiz va uni kichik maktab yoshidagi o'quvchida axborotli komponentligining strukturasi quyidagi 4 ta komponentning sintezi sifatida sirukturaviy muhokama qilamiz.

- kompetitiv komponent – u o'z ichiga informatika, axborot-texnologiyalari, kichik maktab yoshidagi o'quvchida axborotli savodxonlikni shakllantirish metodikasi sohasida deklarativ, protsedurali va metodologik bilimlarni o'z ichiga oladi.

- texnologik komponent; u kichik maktab yoshidagi o'quvchida axborot savodxonligini shakllantirish bo'yicha faoliyat tajribasini egallashga yo'naltirilgan axborot va metodik uquvlar

majmuasini o'z ichiga oladi;

- motivatsion–qadriyatli komponent; u axborotlashtirish sharoitlarida bilish va o'zini bilish jarayoniga, axborotga, axborot va axborot-pedagogik texnologiyalarga, pedagog kasbiga munosabatlar guruhlarini va, shuningdek, o'zini mustaqil rivojlantirish va o'zi o'z namoyon qilishga intilishini o'z ichiga oladi;

- kommunikativ komponent; u «o'qituvchi–Kompyuter- o'quvchi», «o'quvchi–Kompyuter-o'quvchi», «o'qituvchi–Kompyuter– o'qituvchi» pedagogik tizimlarda ta'lim jarayoni sub'ektlarining kommunikativ faoliyatini tashkil etish tajribasini egallashga yo'naltirilgan; Biz bo'lajak boshlang'ich sinflar o'qituvchisining axborotli kompetentligini darajalar bo'yicha rivojlanishini muhokama qilamiz.

Adaptatsiya – ijro darajasi (kichik maktab yoshidagi o'quvchida axborot savodxonligini shakllantirish metodikasining nazariy asoslarini eslab qilish va qayta tiklash, kichik maktab yoshidagi o'quvchida bir tipli, standart vaziyatlarda axborotli savodxonligini shakllantirish algoritmlarini egallash bilan tavsiflanadi, axborot texnologiyalarini bilish va mustaqil o'zlashtirishga cheklangan motivatsiya bo'ladi; axborot texnologiyalari sohasida ham, kichik maktab yoshidagi o'quvchida axborotli savodxonlikni shakllantirish sohasida ham tajriba to'plangan bo'ladi);

Lokal–modellashtiruvchi daraja (axborot texnologiyalari sohasida yangi bilimlarni qidirish va qo'llanish, bo'lajak boshlang'ich sinflar o'qituvchisida boshlang'ich maktab axborot – ta'lim muhitini lokal modellashtirish uquvining mavjudligi, informatika propedevtika kursini o'qitish metodikasiga maktabning informatikalashuvi darajasiga bog'liq ravishda o'zgarishlar kiritish, kommunikativ faoliyatga yangi axborot texnologiyalarini joriy etish bilan tavsiflanadi; o'zini mustaqil bilishga cheklangan ehtiyoj mavjud bo'ladi; axborot texnologiyalari sohasida va kichik maktab yoshidagi o'quvchida axborot savodxonligini shakllantirish sohasida tajriba to'plangan).

- tizimli–modellashtiruvchi daraja (axborot texnologiyalari sohasida bilimlar tizimining mavjudligi, kichik maktab yoshidagi o'quvchida axborot savodxonligini shakllantirish sohasidagi metodologik bilimlarning mavjudligi, boshlang'ich maktab axborot ta'lim muhiti yaratishga qobiliyat, «o'qituvchi –Kompyuter-o'quvchi», «o'quvchi-Kompyuter-o'quvchi», «o'qituvchi-Kompyuter-o'qituvchi» kommunikativ faoliyatini tashkil etishga qobiliyat, yoki uni yangi axborot texnologiyalaridan tizimli foydalanish hisobiga faollashtirish qobiliyati, nostandart pedagogik vaziyatlarda mavjud maxsus bilimlar va metodik bilimlarni qo'llanishi bilan tavsiflanadi).

Yangi axborot texnologiyalarini va kichik maktab yoshidagi o'quvchida axborot savodxonligini shakllantirishning yangi texnologiyalarini o'rganish va foydalanishga muntazam ehtiyoj mavjud bo'ladi; motivatsiya o'zini o'zi rivojlantirish va o'zini o'zi mustaqil namoyon etishini yuzaga keltiradi; axborot texnologiyalari sohasida kichik maktab yoshidagi o'quvchining axborot savodxonligini oshirish sohasida ijodiy faoliyat tajribasi to'plangan.

Psixologo-pedagogik adabiyotlarni va boshlang'ich maktabning axborotlashuvi sharoitlarida o'qituvchi pedagogik faoliyatining strukturasi tahlil qilish bo'lajak boshlang'ich sinflar o'qituvchisi axborot kompetentligining funktsional tarkibini ajratish imkonini berdi:

- gnoseologik funktsiyasi – informatika, axborot texnologiyalari va kichik maktab yoshidagi o'quvchining axborot savodxonligini shakllantirish metodikasi sohasidagi bilimlarni tanlash va tizimlashtirishga yo'naltirilgan;

- orientirlovchi funktsiyasi – u boshlang'ich maktab axborotlashuvining va kichik maktab yoshidagi o'quvchining axborot savodxonligini shakllantirishning pirovard maqsadlarini anglashga, axborot texnologiyalari sohasidagi pedagogik amaliyotga nisbatan o'zgarishlarning amaliy yo'nalganligini anglashga yo'naltirilgan;

- aksiomatik funktsiyasi – u boshlang'ich maktabda samarali pedagogik faoliyat yuritish uchun axborot texnologiyalarining muhimligini hamda o'qituvchining kasbiy rivojlanishi va o'z shaxsiy hayotiy strategiyasini loyihalash uchun axborotli kompetentligining muhimligini anglashga yo'naltirilgan;

- tashchilotchilik funktsiyasi – u informatika, axborot texnologiyalari va kichik maktab yoshidagi o'quvchining axborot savodxonligini shakllantirish metodikasi sohasida yangi bilimlar olish,

faoliyat tajribasini egallash bo'yicha axborot faoliyatini loyi'lash, boshlang'ich maktab axborot-ta'lim muhitini yaroatishga yo'naltirilgan;

- konstruktiv funktsiyasi – u kichik maktab yoshidagi o'quvchining axborot savodxonligini shakllantirish maqsadida o'quv materialini rejalashtirish va yaratishga yo'naltirilgan;

- safarbarlovchi funktsiyasi – bo'lajak boshlang'ich sinflar o'qituvchisining informatika, axborot texnologiyalari, kichik maktab yoshidagi o'quvchining axborot savodxonligini shakllantirish metodikasi sohasida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengib o'tishga, nostandart vaziyatlardagi faoliyat tajribasini egallashga yo'naltirgan.

Boshlang'ich sinflarda informatikani alohida o'quv fani sifatida joriy etish jihatlari A.V.Goryachev, M.A.Plaksin, Yu.A.Pervin, A.L.Semenov, S.N.Tur, S.Peypert, S.A.Beshenkov va boshqalarning ishlarida o'z aksini topgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining turli o'quv fanlarini o'rganishda Kompyuterdan vosita sifatida foydalanish jihatlari N.A.Koroleva, Ye.V.Tixonov, N.A.Piontkovskaya, V.I.Varchenko, N.N.Bulgakov, K.J.Aganina, T.F.Sergeeva, B.B.Qodirova, S.V.Rax, B.D.Sidiqov, B.Xanter va boshqalarning ishlarida o'z aksini topgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyatining universal turlarini (yozuv, hisob, rasm,...) o'zlashtirishda Kompyuter va axborot texnologiyalardan vosita sifatida foydalanish jihatlari D.V.Zaretskiy, N.D.Shetkina, Yu.A.Ivanov boshqalarning ishlarida o'z aksini topgan.

Psixologik muammolar:

- boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan oson o'zlashtiriladigan atama va tushunchalar majmuasini tanlash va bu tushunchalarni qaysi fanlar doirasida berilishini aniqlash ;

- tanlangan atama va tushunchalarni uzluksiz, tizimli ravishda o'quvchilar ongida shakllantirish ;

- boshlang'ich sinf o'quvchilariga informatika elementlarini o'rganishga doir o'quv faoliyat tuzilmasi;

- pedagogik dasturiy vositalarini yaratishda ularga qo'yiluvchi psixofiziologik, didaktik va texnik talablar;

informatika elementlarini o'rgatishga qaratilgan mashqlar tizimi va ulardan foydalanish i.

Бошланғич синф ўқувчисининг информатика элементларини ўрганиш бўйича ўқув фаолияти тузилмаси

Тафаккур ва нутқ кўникмалар

- шартлар тарзида қўлланиладиган мулоҳазаларини эгаллаб олиш;
- алгоритм турларига хос содда тузилмавий мулоҳазаларни эгаллаб олиш;
- тизимга солиш, умумлаштириш, моделлаштириш, конструкциялаш кўникмаларини эгаллаш;
- информатикага доир тушунчаларни тўғри талаффуз этиш, ёзиш ва қўллаш.

Ахборот-ўқув кўникмалар

- зарур материални топиш ва ўрганиш учун дарслик ёки компьютердан фойдаланиш;
- ўз ечимларини, дарслик жавоблари орқали назорат қилиш ёки компьютер дастурида текшириш;
- дарсликда тавсия қилинган ёки компьютердаги турли изоҳ ва мисолларни муҳокама қилиш;
- содда алгоритмлар тузиш.

Ташкилий-ўқув кўникмалар

- дафтар ва компьютерда масалалар ечишда яқка тартиблилик аҳамият бериш, қўйилган вазифани тушуниш;
- компьютерда ўқувчиларнинг биргаликдаги фаолиятида, иш ва амаллар тақсимланиши, ўқувчилар орасидаги ўзаро муносабат, уларни мувофиқлаштириш ҳамда ўзаро назоратни йўлга қўйиш.

Қўлланилган метод ва шакллар

- Кластер усули;
- Савол – жавоб (Экспериментатор томонидан берилган саволларга ўқувчиларнинг оғзаки жавоблари);
- Дарсда ёзма ижодий ишлар (дастур воситалари ёрдамида) ташкил этиш;
- Компьютер техникаси имкониятларини кўрсата оладиган турли мазмундаги масалалар, эртақлар тузиш;
- Ўқувчиларнинг компьютер техникаси билан бўладиган мулоқат жараёнини кузатиш;
- Ўқувчиларнинг компьютер ва ахборот технологияларини кузатиш, кўриш, ишлаш ва эшитишдан олган информатикага доир билимлари бўйича тайёрлаган реферат ва ижодий ишларини текшира бориш;
- Информатика элементларига оид ўқувчиларнинг мавжуд ва ўзлаштирган маълумотларни тартибга келтиришда оғзаки савол-жавоб ўтказиш ва бунда ўқувчилар фаолиятини аниқлаш;
- Ўқувчиларни компьютер ва ахборот технологияларига бўлган онгли муносабатини кузатиб бориш ва уларни баҳолаш.